

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

YERMASHEV JENGIS MARATOVICH

**BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK
(JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI)**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Yermashev Jengis Maratovich

Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik (jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar)3

Ермашев Женгис Маратович

Ответственность за преступления в таможенной сфере (уголовно-правовой и криминологический аспекты).....25

Yermashev Jengis Maratovich

Responsibility for crimes in the customs sphere (criminal-legal and criminological aspects).....49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ERMASHEV JENGIS MARATOVICH

**BOJXONA SOHASIDAGI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK
(JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI)**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.
12.00.15 – Kriminologiya (yuridik fanlar)**

**Yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Yu257 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Toshpulatov Akrom Ikromovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Turg'unboev Elbekjon Odiljonovich
yuridik fanlar doktori

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil 15-noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 1302 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko'chasi 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 1-noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 1-noyabrda 34-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.K. O'razaliev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

A.I. Toshpo'latov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

Kirish (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bojxonaga oid tartibning buzilishi, shuningdek kontrabanda global iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazmoqda. Jahon banki (World Bank)ning ma'lumotlariga qaraganda dunyoda jami tovar va xizmatlarning yillik eksporti 24 227,43 mlrd. AQSh dollarini, yillik importi esa, 21 931,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etsa¹, kontrabanda va bojxona to'lovlaridan qochish yiliga 2,2 trillion AQSh dollari miqdorida zarar yetkazadi². Bu esa soliq tushumlarini yo'qotish, biznesdagi raqobat muhitini buzish, budget taqchilligi, infratuzilma, ta'lim hamda boshqa ijtimoiy sohalarga mo'ljallangan mablag'lar defitsitiga olib kelmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish, Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG)ga erishish qonuniy iqtisodiy o'sishni va sog'lom raqobatni qo'llab-quvvatlash, bojxona sohasida korrupsion omillarni bartaraf etish, sohani raqamlashtirish, bojxonaga oid tartibning buzilishi, shuningdek kontrabandaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, bojxona sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bilan birgalikda bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish hamda bu borada mazkur qilmishlarni jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatdan tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda kontrabanda va noqonuniy moliyaviy oqimlar (Illicit Financial Flows, IFFs)ga qarshi kurashishda iqtisodiy va huquqiy infratuzilmani mustahkamlash, kontrabanda, narkotrafik va bojxona sohasidagi boshqa transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashishda tizimni raqamlashtirish, kontrabandaning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini bartaraf etishda jamoatchilik va biznes sohasida savodxonlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, bojxona sohasidagi jinoyatlarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy barqarorlik va kriminogen vaziyatga ta'sirini minimallashtirish, mazkur turdagi jinoyatlarning global iqtisodiyotga zararini o'rganish hamda ularga qarshi kurash bo'yicha yangi siyosat va chora-tadbirlarni joriy qilish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bugungi sharoitda bojxona sohasidagi jinoyatlarning milliy iqtisodiyot hamda kriminogen zararlanish darajasiga tashqi siyosiy va ijtimoiy ta'sirlarini tadqiq etish, bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini aniqlash, bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda bojxona sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi davlatning strategik maqsadlaridan biri sifatida belgilanib, bojxona sohasidagi jinoyatlar, kontrabanda tovarlarning qiymatini kamaytirish, ularning xavfsizlik va iqtisodiy-ijtimoiy barqarorlikka xavfini minimallashtirish, bojxona bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bojxona organlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, bojxona sohasidagi transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash (Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti va b.), bojxona tizimida korrupsiyani qisqartirish maqsadida xodimlarning kasbiy

¹ www.wits.worldbank.org/CountryProfile/en/WLD

² https://unctad.org/system/files/non-official-document/DITC2020_TRACIT_IllicitTradeandSDGs_fullreport_en.pdf

malakasini oshirish va ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bojxona sohasini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar bojxona sohasidagi qonunchilikka rioya etilishini ta‘minlash, bojxona bilan bog‘liq mamlakat xavfsizligi va iqtisodiyotiga tahdid soladigan qilmishlarga qarshi kurashish hamda bu borada jinoyat qonunini qo‘llash amaliyotini yaxshilash, jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalarini tadqiq etishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrdagi Jinoyat kodeksi, 2016-yil 20-yanvardagi Bojxona kodeksi, 1997-yil 29-avgustdagi 472–I-sonli “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi, 2000-yil 26-maydagi 77-II-sonli “Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-noyabrdagi PF–5268-sonli “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “20222026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-sonli “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta‘minlashga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini, bu borada qonunchilikni takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va ta‘lim muassasalarida, jumladan, University of Oxford, Centre for Criminology (Buyuk Britaniya), John Jay College of Criminal Justice, City University of New York (AQSH), MaxPlanck Institute for Foreign and International Criminal Law (Germaniya), Australian Institute of Criminology (Avstraliya), University of Cambridge, Institute of Criminology (AQSH), Harvard Law School, Program on International Law and Armed Conflict (AQSH), Stockholm University, Stockholm Criminology Symposium (Shvetsiya), University of California, Berkeley, Center for the Study of Law and Society (AQSH), Netherlands Institute for the Study of Crime and Law Enforcement (Niderlandiya), Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation (Rossiya Federatsiyasi), Chinese Academy of Social Sciences (Xitoy Xalq Respublikasi), National Institute of Criminology and Forensic Science (Hindiston)da olib borilmoqda.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarda ushbu jinoyatlarning sabablari, profilaktika choralarining

³ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi: www.ox.ac.uk, www.jjay.cuny.edu, www.csl.mpg.de/en, www.aic.gov.au, www.unodc.org, www.crim.cam.ac.uk, www.pilac.law.harvard.edu, www.su.se/departments-of-criminology, www.csls.berkeley.edu, www.nscr.nl/en, www.izak.ru/en, www.council.science, www.mha.gov.in

samaradorligi va globallashuvning bojxona sohasi bilan bog'liq jinoyatlarga ta'sirini tushunish yuzasidan ilmiy tavsiyalar berilgan (University of Oxford), bojxona sohasidagi jinoyatlarga sabab bo'layotgan ijtimoiy va iqtisodiy omillar, kontrabandada uyushgan jinoiy guruhlarining roli, bunday jinoyatlarga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan muammolar o'rganilgan (John Jay College of Criminal Justice), turli yurisdiksiyalarda bojxona qonunchiligini uyg'unlashtirish, transmilliy kontrabanda tarmoqlarini ta'qib qilish va bojxona sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning roliga e'tibor qaratilgan (MaxPlanck Institute for Foreign and International Criminal Law), bojxona sohasidagi jinoyatlarning tendensiyalari, bojxona chegarasi nazorati samaradorligi hamda yuqori texnologiyaning kontrabanda faoliyatiga ta'siri tadqiq etilgan (Australian Institute of Criminology), bojxona qonunchiligini qo'llashda innovatsion yondashuvlar, kontrabandaga qarshi kurashda politsiyaning roli va muammolarni hal qilishda adolatni tiklash tamoyillaridan foydalanishga urg'u berilgan (Stockholm University), bojxona nazoratida xavfga asoslangan maqsadli strategiyalarning samaradorligi, qonunchilik islohotlarining kontrabanda shakllariga ta'sirini va shaxslarning xatti-harakatlarini to'xtatish uchun xulq-atvor tushunchalaridan foydalanish masalalari tadqiq etilgan (Netherlands Institute for the Study of Crime and Law Enforcement), noqonuniy savdoning oldini olishda bojxona qoidalarining samaradorligi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda bojxona organlarining roli ochib berilgan (Institute of Legislation and Comparative Law), transchegaraviy savdoni tartibga solish va bojxona huquqbuzarliklarining davlat iqtisodiyoti va milliy xavfsizligi uchun oqibatlari (Chinese Academy of Social Sciences), ushbu jinoyatlarning transchegaraviy savdoga ta'siri tadqiq etilgan (National Institute of Criminology and Forensic Science).

Jahonda bojxona sohasidagi ijtimoiy xavfli qilmishlarga qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari, jumladan, qonunchilik samaradorligi va uni takomillashtirish nuqtai nazaridan bunday jinoyatlarga imkon bergan sharoit va sabablarni anglash: shaxslarni tadqiq etilayotgan jinoyatlarni qilishga undaydigan omillarni (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy) aniqlash; huquqiy choralarni qo'llash samaradorligini baholash: amaldagi bojxona qonunlari va huquqni qo'llash tartib-qoidalarining afzalliklari va kamchiliklarini o'rganishga, shuningdek ushbu sohada huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish bo'yicha yangi islohotlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish; globallashuv va zamonaviy texnologiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha tadqiqotlar: huquqni muhofaza qilish organlari duch keladigan imkoniyatlar va muammolarga, shuningdek, bojxona nazorati va jinoiy faoliyatga ushbu omillar va jahon bozorlarining o'zaro bog'liqligiga ta'siri; xalqaro muvofiqlashtirish va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash: bojxona bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati transmilliy xususiyatga ega ekanligini hisobga olib, ushbu jinoyatlarga qarshi muvaffaqiyatli kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar, bojxona organlari va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida xalqaro muvofiqlashtirishning ustuvor yo'nalishlarda tadqiq etilmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarining ayrim jihatlari M.H.Rustambayev, M. Usmonaliyev, R. Kabulov, Q.R. Abdurasulova, O.G'. Zokirova, A.S. Yakubov, A.A. Otajonov, A.T. Achilov, M.M. Kadirov, O.M. Maxkamov, M. Rajabova,

G. Xidoyatov, V.T. Sunnatov, A.A. Allanova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda bojxona sohasidagi jinoyatlar tadqiqot obyekti sifatida O.V. Beschastnova, S.V. Vorobeva, L.D. Gauxman, O.V. Grachev, T.A. Dikanova, A.G. Donchenko, A.A. Drannikov, K.Yu. Zueva, S.Yu. Ivanova, G.P. Kachkina, M.M. Kolesnikova, A.A. Korennaya, M.A. Kochubey, N.I. Kryukova, V.V. Lavrinov, A.M. Maksimov, G.S. Meleshko, A.Dj. Saxer, A.V. Skachko, B.A. Sultanova, O.A. Shashel, D.S. Bibassar, F. Coman, A.H. Fetkulov, S. Maimescu, A.V. Nosach, R.A. Cherkassky, O.A. Pasat⁴ va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida tahlil qilingan. Shunday bo'lsa-da, bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini, bojxona sohasiga oid qonunchilikni hozirgi davr prizmasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish muammolari va istiqbollari alohida tadqiqot obyekti sifatida kompleks o'rganilmaganligi ushbu mavzuda ilmiy ish olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlar rejasidagi "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi bojxona sohasidagi jinoyatlarni kompleks yuridik tahlil qilish, uning o'ziga xos belgilarini aniqlash hamda mazmun-mohiyatini tushunish bo'yicha to'g'ri ilmiy yondashuvni ishlab chiqish, ularning kriminologik xususiyatlarini yoritish, huquqni qo'llash amaliyotini, jinoyat qonuni normalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tavsiyalar va takliflarni ilgari surishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi, o'ziga xos belgilari va klassifikatsiyasini tahlil qilish;

bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonun normalarining rivojlanishi tarixini o'rganish;

ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligida bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini yoritish;

bojxona sohasidagi jinoyatlarning obyektiv hamda subyektiv belgilarini tadqiq etish;

bojxona sohasidagi jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilarini hamda jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash masalalarini bayon etish;

bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifini, shuningdek bojxona sohasidagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar tahlilini amalga oshirish va bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish muammolarini aniqlash;

bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi masalasida qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, jinoyat huquqi

⁴ Mazkur olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

nazariyasini rivojlantirish va huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bojxona sohasidagi jinoyatlarning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini belgilovchi ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti materiallari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud g'oyalar, konseptual yondashuvlar, ta'limotlar, ilmiy-nazariy qarashlar va boshqa manbalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini olib borishda ilmiy bilishning tizimli va funksional tahlil, tarixiylik, mantiqiylik (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, induktiv va deduktiv tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, o'qotar qurolning asosiy qismlarini hamda giyovandlik vositalarining analoglarini bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni kontrabanda jinoyati tarkibiga kiritish lozimligi asoslangan;

tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni hamda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirganlik uchun javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash kiritishga doir takliflar, ya'ni sotib oluvchining mamlakat hududiga olib kiriladigan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan muayyan cheklovlar mavjud bo'lganda tovarning bojxona qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan tegishli usullardan foydalanish lozimligi asoslangan;

o'xshashi mamlakatda ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalarni O'zbekiston hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etishda olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalarining ishlab chiqarilgan yilini tasdiqlash uchun "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga bojxona rasmiylashtiruv vaqtida ishlab chiqaruvchi zavodning texnologik asbob-uskunaning ishlab chiqarilgan yilini tasdiqlovchi texnik pasporti yoki ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarilgan uskuna, shu jumladan, ishlab chiqarilgan yili to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjati taqdim etilishi lozimligi asoslangan;

jismoniy shaxsning "yashil" yo'lak orqali o'tishi yozma ravishda deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlar yo'qligini bojxona organiga ma'lum qilish deb hisoblanishi hamda bu bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish majburiyatidan ozod etmasligi lozimligi asoslangan;

bojxona nazoratini chetlab, tovarlar yoki boshqa moddiy qimmatliklarni, shuningdek kontrabanda ashyolarini uchuvchisiz uchadigan apparatdan foydalanilgan holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazilganida qilmish JK 244⁴ yoxud 248¹-moddasi bilan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bojxona sohasidagi jinoyatlar jinoyat tarkibiga ko'ra; qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra; jinoyat obyektiga ko'ra; jinoyat predmetiga ko'ra; jinoyat-huquqiy mazmuniga ko'ra; jinoyat-protsessual vakolatlarga ko'ra tasniflanishi lozimligi asoslangan;

bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda, nazariy jihatdan quyidagi 3 turkum (maxsus kontrabanda, iqtisodiy kontrabanda, oddiy kontrabanda)ga ajratish lozimligi asoslangan;

chiqindilarni yoki chet elga mansub radioaktiv chiqindilarning har qanday turlarini saqlash va ko'mib tashlash maqsadida, shuningdek, chiqindilarni fuqarolarning hayoti va sog'lig'i, atrof muhitning xavfsizligini ta'minlash qoidalariga rioya etmasdan qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi asoslangan;

davlat va jamoat tuzumini qo'porishga, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik, davlat suverenitetini buzishga, urush, terrorizmni targ'ib qilishga yo'naltirilgan materiallarni tarqatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik uchun jinoiy javobgarlik differentsiatsiya qilinishi lozimligi asoslangan;

qilmishni chegarani buzib o'tish, ya'ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan sodir etish bojxona chegarasidan predmetlarni o'tkazishda ifodalanadigan bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi lozimligi asoslangan;

moddiy madaniy meros obyektlarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki ularni qaytarish majburiyatini bajarmaganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi asoslangan;

davlat sirlari yoki maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborotni yashirin ravishda olish va ishlodan o'tkazish uchun mo'ljallangan texnika vositalarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqqanlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida foydalanilgan adabiyotlar va milliy qonunchilik hujjatlari rasmiy manbalardan olingan bo'lib, belgilangan talablar asosida havola qilingan, ilmiy-tadqiqot ishi yakuni bo'yicha jinoyat-huquqiy fanlarga tegishli ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish, tadqiq etish, huquqiy atamalar, shuningdek bojxona sohasidagi jinoyat uchun javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligini qiyosiy tahlil etish, huquqni qo'llash amaliyoti va sotsiologik so'rov (55 nafar sudyalalar, 145 nafar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, 130 nafar professor-o'qituvchilar, 185 nafar advokatlar o'rtasida) natijalari, statistik ma'lumotlar va 210 ta sud hukmlari tahlili asosida nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar ilgari surilgan, shu bilan birga, dissertatsiya ishining dastlabki natijalari amaliyotga joriy qilinganligi va bu tegishli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy,

xorijiy nashrlarda e'lon qilinganligi tadqiqot xulosalarining ishonchligini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalari bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning nazariy asoslarini rivojlantirishga, ushbu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi, bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqishga yordam beradi hamda "Jinoyat huquqi. Umumiy qism", "Jinoyat huquqi. Maxsus qism", "Kriminologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi, shuningdek, tadqiqot natijalaridan yurisprudentsiya va sotsiologiya yo'nalishlarida yangi ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyati, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayoni hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat-huquqiy fanlarni o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlariga doir masalalarni tadqiq etishning ilmiy natijalari asosida:

bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, o'qotar qurolning asosiy qismlarini hamda giyovandlik vositalarining analoglarini bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni kontrabanda jinoyati tarkibiga kiritish to'g'risidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasi birinchi qismining dispozitsiyasini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 29-fevraldagi 3-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflarning qabul qilinishi qilmishni kontrabanda jinoyati sifatida to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qilgan;

tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni hamda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirishga doir qilmish uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining yangi tahrirdagi 130¹ va 244⁴-moddalari dispozitsiyasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2024-yil 29-fevraldagi 3-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi tazyiqni targ'ib qiluvchi mahsulotni hamda uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qilgan;

bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash kiritishga doir takliflar, ya'ni sotib oluvchining mamlakat hududiga olib kiriladigan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan muayyan cheklovlar mavjud bo'lganda tovarning bojxona qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan usullar haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-apreldagi 160-son qarori ilovasining 15-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 1-martdagi 12-15-19-sonli dalolatnomasi).

Mazkur taklifning qabul qilinishi mamlakatimiz hududiga olib kiriladigan tovarlarga doir huquqlariga nisbatan muayyan cheklovlar mavjud bo'lganda tovarning bojxona qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan usullarni aniqlashga xizmat qilgan;

o'xshashi mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etishda olib kiriladigan texnologik asbob-uskunalar ishlab chiqarilgan yilini tasdiqlash uchun "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida ishlab chiqaruvchi zavodning texnologik asbob-uskunaning ishlab chiqarilgan yilini tasdiqlovchi texnik pasporti yoki ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarilgan uskuna, shu jumladan, ishlab chiqarilgan yili to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjati taqdim etilishiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi 352-son qaroriga 1-ilovaning izoh qismi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2024-yil 1-martdagi 12-15-19-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan o'xshashi respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlashga xizmat qilgan;

jismoniy shaxsning "yashil" yo'lak orqali o'tishi yozma ravishda deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlar yo'qligini bojxona organiga ma'lum qilish deb hisoblanishi hamda bu bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish majburiyatidan ozod etmasligiga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi 2-son qarorining 2-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 20-fevraldagi 10-30-2050-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi jismoniy shaxsning "yashil" yo'lak orqali o'tishi yozma ravishda deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlar yo'qligini bojxona organiga ma'lum qilish shaxsni bojxona to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etish majburiyatidan ozod etmasligi to'g'risidagi qoidaning mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

bojxona nazoratini chetlab, tovarlar yoki boshqa moddiy qimmatliklarni, shuningdek kontrabanda ashyolarini uchuvchisiz uchadigan apparatdan foydalanilgan holda bojxona chegarasidan o'tkazilganida, JK 244⁴ yoxud 248¹-moddasi bilan jinoyatlar majmui bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'risidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-son qarorining 19-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 20-fevraldagi 10-30-2050-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning qabul qilinishi kontrabanda ashyolarini uchuvchisiz uchadigan apparatdan foydalanilgan holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazilganida qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida

muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 12 ta maqola (shundan 6 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, o'n ikki paragrafni o'z ichiga olgan to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 245 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishi** (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning umumiy tavsifi”** deb nomlanib, unda bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va mazmuniga doir yondashuvlar ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Ma'lumki, O'zbekiston qonunchiligida bojxona sohasidagi jinoyatlar atamasi va uning mazmuni yoritilmagan. Ammo ushbu turdagi jinoyatlar tovar, qimmatliklar yoki boshqa predmetlarni bojxona chegarasi orqali o'tkazish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarining buzilishiga sabab bo'ladi hamda davlatning iqtisodiyot asoslari va jamoat xavfsizligiga jiddiy zarar yetkazadi. Ya'ni, bojxona sohasidagi jinoyatlar qayd etilgan ushbu jihatlar bilan umumiy va o'xshash xususiyatga ega bo'lgan jinoyatlar majmui hisoblanadi. Ushbu natsqai-nazardan kelib chiqqan holda, dissertatsiyada bojxona sohasidagi jinoyatlar atamasi mazmunini to'g'ri tushunish uchun milliy va xorijiy qonunchilik, mahalliy va chet ellik olimlarning fikrlari va yondashuvlari atroflicha tahlil qilingan.

Jumladan, bu borada olimlarning qarashlari shartli ravishda beshta guruhga ajratilgan. Xususan, birinchi guruhga mansub olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni davlatning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soluvchi jinoyat sifatida umumiy tavsif berishgan. Ikkinchi guruhga mansub olimlar bojxona sohasidagi jinoyatni tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi jinoyat sifatida urg'u berishgan bo'lsa, uchinchi guruhga mansub olimlar bojxona sohasidagi jinoyat tushunchasini bojxona organlarining maqsad va vazifalari bilan bog'lashgan. Shuningdek, to'rtinchi guruhga mansub olimlar bojxona sohasidagi jinoyatlarni predmetlarni bojxona chegarasi orqali o'tkazishning belgilangan tartibini buzuvchi qilmishlar sifatida ta'rif berishadi. Beshinchi guruhga mansab olimlar tomonidan bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasiga ta'rif berishda bojxona organlarining jinoyat-protsessual vakolatiga e'tibor qaratilgan.

Ushbu tadqiqot ishida har bir nuqtai nazar milliy jinoyat-huquqiy siyosat va milliy qonunchilik nuqtai nazardan kelib chiqib tahlil qilingan hamda har bir holat

bo'yicha muallifning asoslangan shaxsiy qarashlari bayon etilgan.

Tadqiqot natijasi sifatida milliy jinoyat-huquqiy tizimga joriy etish uchun tavsiya sifatida bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasi ta'rifi ishlab chiqilgan.

Olimlar tomonidan bildirilgan ushbu masalaga doir barcha mezonlar muvofiqlashtirilgan holda O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha bojxona sohasidagi jinoyatlar klassifikatsiyasi shakllantirilgan: *jinoyat tarkibiga ko'ra; jinoyat obyektiga ko'ra; jinoyat predmetiga ko'ra; jinoyat-huquqiy mazmuniga ko'ra; jinoyat protsessual vakolatlarga ko'ra.*

Mazkur bobda yana O'zbekiston hududida bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilovchi jinoyat qonuni normalarining rivojlanish bosqichlari shartli ravishda oltita bosqichga ajratilgan holda o'rganilgan.

Xorijiy davlatlar, shu jumladan, MDHga a'zo davlatlar jinoyat qonunlarida tahlil qilingan masalani tartibga solishga nisbatan yondashuvlar bir xil emasligi qayd etilgan. Shuningdek, ishda ushbu masalada turli xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligini qiyosiy tahlil qilish orqali ayrim xulosalar ishlab chiqilgan. Masalan, xorijiy mamlakatlarda bojxona sohasidagi jinoyatlar predmetlari tahlili aksariyat davlatlarda barcha predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish kontrabanda sifatida baholanganligini, aksariyat davlatlarda esa, jinoyat predmetlarining ijtimoiy xavflilik darajasidan kelib chiqib, turli darajadagi predmetlarni bojxona chegarasidan o'tkazishda alohida moddalarda javobgarlik belgilash yondashuvi ustuvor ekanligi; bojxona sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfini baholashda turli mamlakatlar qonunchiligi o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligi (Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya va XXR kabi davlatlar qonunchiligida ayrim predmetlar kontrabandasi uchun 15 yillik qamoq jazosi, mulkni musodara qilish bilan birga umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki hatto o'lim jazosigacha bo'lgan jazolar belgilangan); aksariyat xorijiy davlatlarda (Qozog'iston, Niderlandiya va Polsha) javobgarlik belgilangan "iqtisodiy kontrabanda", "naqd valyuta kontrabandasi", kontrabanda maqsadida rasmiy hujjatlarni soxtalashtirish yoki qalbakilashtirish, shuningdek ushbu maqsadda foydalaniladigan texnik vositalar kontrabandasi kabi qilmishlar uchun javobgarlik masalasini ko'rib chiqish zarurligi va boshqalar.

Bundan tashqari, ushbu paragrafda milliy va xorijiy tajriba tahlili asosida jinoyat qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan quyidagilar taklif etilgan: kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqqanlik uchun, shuningdek davlat sirlari yoki maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborotni yashirin ravishda olish va ishlovdan o'tkazish uchun mo'ljallangan texnika vositalarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik yoki respublika hududidan olib chiqqanlik uchun javobgarlik belgilash va boshqalar.

Dissertatsiyaning **"Bojxona sohasidagi jinoyatlarning yuridik tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur jinoyatning obyekti, predmeti, obyektiv tomoni hamda subyektiv belgilari, ya'ni jinoyatning subyekti, subyektiv tomoni tadqiq etilgan.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar obyektlarini tasniflashning "vertikal" tasnifga ko'ra to'rt bosqichli tizimidan, ya'ni jinoyatlarning umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari, "gorizontal" tasnifga ko'ra bevosita asosiy, bevosita

qo‘shimcha va bevosita fakultativ obyektlarga ajratish usulidan foydalanilgan.

Bojxona sohasidagi jinoyatlarning maxsus obyekti JK 130, 130¹ va 133²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda shaxsning huquq va erkinliklarini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, JK 182 va 184-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlar, JK 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanishi xulosa qilingan. Turdosh obyekt sifatida JK 130, 130¹ va 133²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda normal axloqiy qadriyatlarni ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlar, JK 182 va 184-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda iqtisodiyot asoslarini muhofaza etuvchi ijtimoiy munosabatlar, JK 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda jamoat xavfsizligini muhofaza etuvchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanishi aniqlangan.

Tadqiqot ishida bojxona sohasida jinoyat toifasiga kiritilgan har bir qilmish bo‘yicha jinoyat predmeti alohida tahlil qilinib, jinoyat qonunini qo‘llash bo‘yicha mavjud muammolar, qonunchilikdagi bo‘shliqlar aniqlangan hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha asosli takliflar ishlab chiqilgan. Jumladan, ishda JK Maxsus qismining 8-bo‘limida “zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulot” atamasi va unga berilgan ta‘rifni yangi tahrirda bayon etish taklif etilgan.

Shuningdek, bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyatining predmeti tovar va transport vositasi hisoblanadi, degan xulosaga kelingan. Mazkur xulosadan kelib chiqib, JK 182-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidagi “tovar yoki boshqa qimmatliklarni” degan so‘zlarni “tovar yoki transport vositasini” degan so‘zlar bilan almashtirish maqsadga muvofiqligi bildirilgan hamda ushbu predmetlar mazmuni yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorida tushuntirish berish tavsiya etilgan.

Bundan tashqari, ishda JK 246-moddasi birinchi qismiga “radioaktiv materiallar” so‘zlaridan keyin “xavfli chiqindilar” so‘zlarini kiritish, shuningdek, JKni “O‘zbekiston Respublikasi hududiga chiqindilarni olib kirish” deb nomlangan 204¹-modda bilan to‘ldirish taklif etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) taqiqlangan buyumlar ro‘yxatida keltirilgan predmetlarni inobatga olgan holda JK 156 va 246-moddalarini o‘zgartirish taklif etilgan.

Obyektiv tomoniga ko‘ra bojxona sohasidagi jinoyalarni ikkita toifaga ajratish mumkinligi xulosa qilingan. Turli usullardan foydalangan holda bojxona chegarasidan jinoyat predmetlarini qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan bog‘liq qilmishlar birinchi toifaga kiritilgan. Bu toifaga qilmishlarga bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlashdan tashqari bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar kirishi qayd etilgan hamda ularning obyektiv tomoni tadqiq etilgan. Jumladan, ushbu guruhga mansub bojxona sohasidagi jinoyatlar obyektiv tomondan O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan turli shakllarda: a) bojxona nazoratini chetlab; b) bojxona nazoratidan yashirib; v) bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalanib; g) deklaratsiyasiz; d) boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib olib o‘tishda ifodalanishi bayon etilgan.

Bojxona to‘lovlaridan bo‘yin tovlash jinoyati obyektiv tomondan bojxona

to'lovlari to'lanadigan obyektlarni qasddan yashirish, bojxona to'lovlari to'lanadigan obyektlarni qasddan kamaytirib ko'rsatish hamda bojxona to'lovlarini to'lashdan boshqacha usulda qasddan bo'yin tovlash shakllarida sodir etilishi aniqlangan.

16 yoshga to'lgan har qanday aqli raso jismoniy shaxs bojxona sohasidagi jinoyatlarning subyekti bo'lishi mumkinligi xulosa qilingan hamda maxsus subyekt sifatida mansabdor shaxslarning uch toifasi ajratib ko'rsatilgan. Jumladan, bojxona nazorati funksiyalarini yoki davlat chegarasini qo'riqlash funksiyalarini bevosita bajarayotgan shaxslar, bojxona organlari yoki boshqa davlat organlarining o'z xizmat vakolatlarini bajarishi munosabati bilan bojxona nazoratidan o'tkazilmaydigan mansabdor shaxslar, egallagan xizmat mavqeiga ko'ra qonunga muvofiq bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilingan mansabdor shaxslar.

Mazkur dissertatsiyada bojxona sohasidagi jinoyatlar subyektiv tomonidan faqat to'g'ri qasd orqali sodir etilishi aniqlangan. Shuningdek, unda bojxona sohasidagi jinoyatlarning motivi turli shakllarda bo'lishi mumkinligi, ammo jinoyatni kvalifikatsiya qilishda ular zaruriy belgi sifatida e'tirof etilmasligi xulosa qilingan.

O'z navbatida, jinoyatning maqsadi JK 130, 130¹ va 244³-moddalarida zaruriy belgi, 133², 182, 184, 244⁴, 246, 250¹-modddalarida fakultativ belgi hisoblanishi bayon etilgan. Jumladan pornografik mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadi, tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi toifadagi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadi, diniy mazmundagi materiallarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadining mavjudligini aniqlash zarurligi, aks holda, qilmishni ushbu moddalar bo'yicha kvalifikatsiya qilish mumkin emasligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobida “Bojxona sohasidagi jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari va ularni kvalifikatsiya qilish” masalalari** tahlil qilingan.

Jumladan, ushbu bobda bojxona sohasidagi jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Bunda bojxona sohasidagi jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari yettita guruhga ajratib o'rganilgan.

Shuningdek, har bir holat yuzasidan amaldagi jinoyat-huquqiy normalar, boshqa qonunchilik hujjatlari, bu borada olimlarning fikrlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlaridagi qoidalar tahlil qilinib, muallifning asoslangan xulosalari va fikrlari bayon etilgan. Jumladan, JK 182, 244³, 246-moddalarida “takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan” va bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan barcha moddalarda “o'ta xavfli retsidivist tomonidan” sodir etilgan qilmish uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutish taklif etilgan. Bundan tashqari, JK 182, 244³, 246-moddalarida “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan” qilmish uchun, 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246-moddalarida “uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan” qilmish uchun jazoni og'irlashtiruvchi holatni belgilash taklif etilgan.

Ishda bojxona sohasidagi barcha jinoyatlarda “xizmat mavqeidan foydalanish” atamasini bir xilda qo‘llash maqsadga muvofiqligi xulosa qilingan. Bundan tashqari, dissertatsiyada bojxona sohasidagi jinoyatlarning favqulodda holat joriy etilgan vaqtda sodir etilishini jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo‘yish taklif etilgan.

Bojxona sohasidagi jinoyatlar JK Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyatlar, xususan, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, iqtisodiyot asoslariga hamda jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar tizimida o‘zining ijtimoiy xavfliligi va boshqa o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishi qayd etilgan. O‘z navbatida, bojxona sohasidagi jinoyatlarning obyekti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni, shuningdek, jinoyat predmeti masalalarida o‘zaro va boshqa ayrim jinoyatlarda mavjud holatlarga o‘xshashligi, shu sababdan, bojxona sohasidagi jinoyatlarni bunday jinoyatlardan farqlash ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etishi bayon etilgan.

Jumladan, milliy jinoyat qonunchiligida jinoyat predmetlari taqsimotida bunday bunday yondashuv ham munozarali ekanligi bildirilgan. Sababi, JK 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246 va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan predmetlardan tashqari erkin fuqarolik muomalasida bo‘lishi taqiqlangan (jumladan, eksport yoki import qilish taqiqlangan tovarlar) yoki erkin fuqarolik muomalasida bo‘lish cheklangan (jumladan eksport-import qilish uchun ruxsatnoma yoki guvohnoma talab qilinadigan) tovarlar va xom-ashyo turlari borki, ularni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish erkin fuqarolik muomalasida bo‘ladigan predmetarga nisbatan mamlakat iqtisodiyotiga (jamoat xavfsizligiga emas) kattaroq zarar yetkazadi yoki shunday zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradi.

“Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasida O‘zbekistonda quyidagi maqsadlarda qonunchilik bilan tovarlar eksporti va importi taqiqlanishi hamda cheklanishi mumkinligi belgilangan: a) milliy xavfsizlikni ta‘minlash; b) fuqarolar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, hayvonot va o‘simlik dunyosini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish; v) ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioya etish; g) O‘zbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash; d) madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga bo‘lgan mulk huquqlarini boshqaga o‘tkazishdan himoya qilish; e) O‘zbekiston Respublikasining to‘lov balansini saqlab turish; j) O‘zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish; z) tiklab bo‘lmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish; i) O‘zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish. Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrda PF–5286-son Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari asosida eksport qilinadigan buyumlar va mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlangan. Shu turdagi tovar va xom-ashyolarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazish o‘z-o‘zidan ayonki, erkin fuqarolik muomalasida bo‘lgan tovarni qonunga xilof ravishda bojxona chegarasidan o‘tkazishga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi ancha yuqori hisoblanadi. Lekin hozirda amaliyotda bu kabi holatlarning barchasi JK 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinib kelayotganligi bayon etilgan.

Dissertatsiyada bunday toifadagi predmetlar uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish kerakligi, aslida bunday amaliyot ko‘plab xorijiy

davlatlarda allaqachon hayotga tatbiq etilganligi bayon etilgan. Jumladan, Ukraina JK 201-moddasida madaniy boyliklar kontrabandasi, 201¹-moddasida yog'och va qimmatbaho daraxt turlari kontrabandasi, 201⁴-moddasida aksiz to'lanadigan tovarlar kontrabandasi uchun, Qozog'iston JK 234-moddasida, Polsha JK 299-moddasida hamda Niderlandiya JK 337-moddasida iqtisodiy kontrabanda uchun, Moldova JK 248¹-moddasida aksiz to'lanadigan tovarlar kontrabandasi uchun, RF JK 200¹-moddasida naqd pul va pul vositalarining kontrabandasi, 200²-moddasida alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari kontrabandasi uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu holatlarni tahlil qilib, dissertant JKni "Iqtisodiy kontrabanda" deb nomlangan yangi 182¹-modda bilan to'ldirish hamda eksport va import qilinishi taqiqlangan hamda cheklangan tovarlar yoki transport vositalari; qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, muhofaza choralari, antidemping yoki kompensatsiya bojlari joriy etilgan tovarlar yoki transport vositalari; valyuta qimmatliklari; rangli metallar, ularning parcha va rezgi chiqitlari; iqtisodiyot tarmog'iga jiddiy zarar yetkazadigan boshqa ashyolarni jinoyat predmeti sifatida belgilash zaruratini asoslagan.

Tahlillar natijasida JKni quyidagi yangi moddalar bilan ham to'ldirish taklif etilgan: Bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik (184²-m.), Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari yoki analoglarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi orqali tranzit tarzida o'tkazish (273¹-m.), Moddiy madaniy meros obyektlarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki ularni qaytarish majburiyatini bajarmaslik (132¹-m.), Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar yoki yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish (202²-m.).

Bundan tashqari, dissertatsiyada bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda, nazariy jihatdan quyidagi 3 turkum (*maxsus, iqtisodiy, oddiy kontrabanda*)ga ajratish tavsiya etilgan.

Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hamda bojxona to'lovlaridan bo'yin tovlash jinoyatlarini farqlash masalasi bojxona sohasidagi jinoyatlarni o'zaro farqlashda yuzaga kelayotgan muammoni hal qilish maqsadida bojxona to'lovlarining harakat bilan ifodalangan qismini, ya'ni bojxona to'lovlari to'lanishi kerak bo'lgan obyektlar aniqlangunga qadar bo'lgan harakatlar bilan bog'liq qilmishlarni JK 182-moddasi hamda ishda taqdqiqot ishida taklif etilayotgan JK 182¹-moddasi (iqtisodiy kontrabanda) bilan qamrab olishni hamda bojxona to'lovlari to'lanishi kerak bo'lgan obyektlar aniqlangandan keyingi bosqichni, ya'ni belgilangan bojxona to'lovlarini to'lamaslik qismini JK 182 va 184-moddasidan ajratib chiqarishni maqsadga muvofiq, deb hisoblangan.

Dissertatsiyaning **"Bojxona sohasidagi jinoyatlarning kriminologik jihatlari"** deb nomlangan to'rtinchi bobi bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxsning kriminologik tavsifi, ushbu turdagi jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlar tahlili, jinoyatlarning oldini olish muammolariga bag'ishlangan.

Bunda ijtimoiy-biologik, ijtimoiy-demografik va ijtimoiy-psixologik

ma'lumotlarning jamlanishiga asoslanib, bojxona sohasidagi jinoyatlarni sodir etgan jinoyatchining shaxsini quyidagicha tavsiflangan: odatda, turmush qurgan, farzandli, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan, kasbiy yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, moliyaviy barqaror erkak shaxs. Bu shaxs past ijtimoiy mas'uliyatni, qat'iy irodaviy fazilatlarini, o'zini o'zi baholashni oshirib yuborishni, cheklangan intellektual imkoniyatlarni va rivojlanmagan axloqiy va ma'naviy fazilatlar tizimini namoyon qiladi.

Shuningdek, bojxona sohasidagi jinoyatlarni jinoyatchi shaxsining yosh ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda uchta toifaga ajratish tavsiya etilgan: 1) JK 130, 130¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18-30 yoshdagi shaxslar tomonidan; 2) JK 182, 184, 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 30-60 yoshdagi shaxslar tomonidan; 3) JK 244³, 244⁴ va 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18-60 yoshdagi shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Bundan tashqari, profilaktika tadbirlarini ishlab chiqishda JK 130, 130¹, 133², 244³, 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtasida, JK 182, 184, 244⁴ va 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo'yicha ham O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ham mamlakatimizga tashrif buyuradigan chet el fuqarolari o'rtasida targ'ibot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilgan.

Ushbu jinoyatning sabablari va unga imkon bergan shart-sharoitlar tahlil qilinib, jinoyatning asosiy sabablari sifatida quyidagilar xulosa qilingan:

moliyaviy motivatsiya: yuqori bojxona to'lovlaridan qochish va foyda olish maqsadi kontrabandani rag'batlantiradi;

korruptsiya: poraxo'rlik, bojxona xodimlari bilan til biriktirib, noqonuniy faoliyatga yo'l ochadi;

amalga oshirish muammolari: resurslarning yetarli emasligi va yomon infratuzilma qonunchilikning samarali ijro etilishiga to'sqinlik qiladi;

normativ murakkablik: murakkab bojxona qoidalar va byurokratik qog'ozbozlik ekspluatatsiya qilish imkoniyatini beradi;

globallashuv: murakkab global ta'minot zanjirlari va transchegaraviy savdo monitoringda qiyinchiliklar tug'diradi;

texnologiyadan foydalanish: jinoyatchilar tizimlarni manipulyatsiya qilish uchun ilg'or texnologiyalar va kiberjinoyatlardan foydalanadilar;

zaif normativ-huquqiy asoslar: noto'g'ri qonunchilik va yengil jazolar bojxona huquqbuzarliklarini samarali to'xtata olmaydi;

iqtisodiy bosimlar: iqtisodiy tanazzul fuqarolar va korxonalarni bojxona jinoyatlarini sodir etishga undashi mumkin.

Tadqiqot natijasida bojxona sohasidagi jinoyatlarning oldini olishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar taklif etilgan:

bojxona chegarasidan tovar va transport vositalarini o'tkazish bo'yicha ma'muriy tartib-tartiblarini soddalashtirish;

bojxona to'lovlari miqdorini qayta ko'rib chiqish va ularning miqdorini pasaytirish;

bojxona xizmatida korruptsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish;

bojxona organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqqligini ta'minlash;

bojxona sohasidagi barcha ma'muriy tartib-taomillarini raqamlashtirish;

aholining maksimal darajada bandligini ta'minlash;

aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish;

jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

O‘z navbatida, mazkur yo‘nalishlarga rioya qilish orqali bojxona sohasidagi jinoyatlar xavfini sezilarli darajada kamaytirish hamda xavfsiz va manfaatlarimizga mos keladigan xalqaro savdo muhitini yaratishga hissa qo‘shish mumkinligi bayon etilgan.

XULOSA

Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlarini o‘rganish natijasida quyidagi taklif va xulosalarga kelingan:

I. Jinoyat huquqi nazariyasini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar:

1. Bojxona sohasidagi jinoyatlar tushunchasining quyidagi ta’rifi ishlab chiqildi:

“Bojxona sohasidagi jinoyatlar – bu tovar, qimmatliklar yoki boshqa predmetlarni bojxona chegarasi orqali o‘tkazish, ya’ni bojxona chegarasi orqali davlat hududiga olib kirish, davlat hududidan olib chiqish va davlat hududiga qaytarish jarayonlarida bojxona rasmiylashtiruvi, ro‘yxatga olish, bojxona nazoratidan o‘tish, shuningdek, bojxona to‘lovlarini undirish yoki to‘lash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarining buzilishida ifodalanuvchi axloqqa, davlatning iqtisodiyot asoslariga va jamoat xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar majmui”.

2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning quyidagi klassifikatsiyasi shakllantirildi:

a) *jinoyat tarkibiga ko‘ra*: pornografik mahsulotni, shu jumladan, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O‘zbekiston hududiga olib kirish (JK 130-m.); tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O‘zbekistonga olib kirish (JK 130¹-m.); bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish (JK 182-m.); bojxona to‘lovlarini to‘lashdan bo‘yicha tovlash (JK 182 va 184-m.); diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida qonunga xilof ravishda O‘zbekistonga olib kirish (JK 244³-m.); uchuvchisiz uchadigan apparatlarni, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini qonunga xilof ravishda olib kirish (JK 244⁴-m.); kontrabanda (JK 246-m.); pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda O‘zbekistonga olib kirish yoki O‘zbekistondan olib chiqish (JK 250¹-m.);

b) *qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra*: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar (JK 130-m. 1 va 2-qismlari, 130¹-m., 184-m. 1 va 2-qismlari, 244³-m., 244⁴-m. 1-qismi, 250¹-m. 1-qismi); uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar (JK 182-m. 1-qismi, 184-m. 3-qismi, 244⁴-m. 2-qismi, 250¹-m. 2-qismi); og‘ir jinoyatlar (JK 130-moddasi uchinchi qismi, 182-moddasi ikkinchi qismi, 244⁴-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlari, 246-moddasi birinchi qismi, 250¹-moddasi uchinchi va to‘rtinchi qismlari); o‘ta og‘ir jinoyatlar (JK 246-m. 2-qismi);

v) *jinoyat obyektiga ko‘ra*: axloqqa qarshi jinoyatlar (JK 130 va 130¹-m.); davlatning iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar (JK 182 va 184-m.); jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (JK 244³, 244⁴, 246, 250¹-m.);

g) *jinoyat predmetiga ko‘ra*: erkin fuqarolik muomalasida bo‘lgan predmetlar

bilan bog'liq jinoyatlar (JK 182-m.); erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi cheklangan predmetlar bilan bog'liq jinoyatlar (JK 182, 244³, 244⁴, 246, 250¹-m.); erkin fuqarolik muomalasida bo'lishi taqiqlangan predmetlar bilan bog'liq jinoyatlar (JK 130, 130¹, 246-m.);

d) *jinoyat-huquqiy mazmuniga ko'ra*: jinoyat predmetini bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar (JK 130, 130¹, 182, 244³, 244⁴, 246, 250¹-m.); jinoyat predmetini bojxona chegarasidan o'tkazish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar (JK 184-m.);

e) *jinoyat protsessual vakolatlariga ko'ra*: bojxona organlari vakolatiga taalluqli jinoyatlar (JK 130, 130¹, 184, 244³, 244⁴, 250¹-m.); davlat xavfsizlik xizmati organlari vakolatiga taalluqli jinoyatlar (JK 182, 246-m.).

4. Bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunchilik normalarining rivojlanishini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratilgan:

1-bosqich – VIII asrga qadar bo'lgan davr;

2-bosqich – VIII asrdan XIX asrning o'rtalariga qadar bo'lgan davr;

3-bosqich – XIX asrning o'rtalaridan 1926 yilga qadar bo'lgan davr;

4-bosqich – 1926–1959 yillar;

5-bosqich – 1959–1994 yillar;

6-bosqich – 1994 yildan hozirga qadar bo'lgan davr.

5. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning jazoni og'irlashtiruvchi belgilari tahlili asosida ular quyidagi guruhlarga ajratildi:

a) *takroran jinoyat sodir etish yoki retsidiv jinoyat* – JK 130-moddasi 2-qismi "a" bandi, 130¹-moddasi 2-qismi "a" bandi, 184-moddasi 2-qismi "a" bandi, 244⁴-moddasi 2-qismi "a" bandi, 250¹-moddasi 2-qismi "v" bandi;

b) *ishtirokchilik shakllari* – JK 130-moddasi 2-qismi "b" bandi, 130¹-moddasi 2-qismi "b" bandi, 182-moddasi 2-qismi "v" bandi, 244⁴-moddasi 2-qismi "v" bandi, 250¹-moddasi 2-qismi "b" bandi va 3-qismi "b" bandi;

v) *jinoyat predmetining xususiyati* – JK 130-moddasi 3-qismi, 246-moddasi 2-qismi;

g) *miqdor ko'rsatkichi* – JK 182-moddasi 2-qismi "a" bandi, 184-moddasi 2-qismi "b" bandi va 3-qismi, 246-moddasi 2-qismi, 250¹-moddasi 2-qismi "a" bandi, 3-qismi "a" bandi;

d) *jinoyat sodir etish usuli* – JK 182-moddasi 2-qismi "b" bandi;

e) *maxsus subyekt* – JK 182-moddasi 2-qismi "g" bandi, 244⁴-moddasi 2-qismi "b" bandi, 250¹-moddasi 2-qismi "g" bandi;

j) *ijtimoiy xavfli oqibatga ko'ra jazoni og'irlashtiruvchi holatlar* – JK 244⁴-moddasi 2-qismi "g" bandi, 3-qismi va 4-qismi "a", "b", "v" bandlari, 250¹-moddasi 2-qismi "d" bandi, 3-qism "v" bandi va 4-qismi "a", "b" bandlari.

6. Bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq qilmishlarni ularning predmetini inobatga olgan holda, nazariy jihatdan quyidagi 3 turkumga ajratildi: *maxsus kontrabanda* – JK 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246, 250¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar. Ushbu jinoyatlar axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga zarar yetkazish xususiyatiga ega bo'lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, bunday predmetlar turlari ushbu moddalarda to'g'ridan-to'g'ri sanalgan, shu sababdan, bunday toifadagi qilmishlar maxsus norma sifatida JK 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246, 250¹-moddalari bilan kvalifikatsiya qilinadi; *iqtisodiy*

kontrabanda – JKning taklif etilayotgan 182¹-moddasida nazarda tutiladigan jinoyat. Ushbu jinoyatlar milliy iqtisodiyot tarmog‘iga (*axloqiy munosabatlar va jamoat xavfsizligiga emas*) jiddiy zarar yetkazish xususiyatiga ega bo‘lgan predmetlarni bojxona chegarasidan qonunga xilof o‘tkazish bilan bog‘liq, bunday predmetlar turlari ushbu moddada ko‘rsatilgan, shu sababdan, bunday toifadagi qilmishlar JK 182¹-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinadi; *oddiy kontrabanda* – JK 182-moddasida javobgarlik belgilangan bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish jinoyati. Ushbu jinoyat maxsus kontrabanda va iqtisodiy kontrabandada nazarda tutilmagan boshqa barcha predmetlarni qamrab oladigan, odatda, erkin fuqarolik muomalasida bo‘lgan tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o‘tkazish bilan bog‘liq qilmishlardir.

II. Qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar:

1. JK 182-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidagi “tovar yoki boshqa qimmatliklarni” degan jummalarni “tovar yoki transport vositasini” jummalari bilan almashtirish taklif etilgan.

2. JKni quyidagi tahrirdagi 204¹-modda bilan to‘ldirish taklif etilgan:

“204¹-modda. O‘zbekiston Respublikasi hududiga chiqindilarni olib kirish

Chiqindilarni yoki chet elga mansub radioaktiv chiqindilarning har qanday turlarini saqlash va ko‘mib tashlash maqsadida, shuningdek, chiqindilarni fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, atrof muhitning xavfsizligini ta‘minlash qoidalariga rioya etmasdan qayta ishlash yoki utilizatsiya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, –

bazaviy hisoblash miqdorining to‘rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha harakatlar og‘ir oqibatlariga sabab bo‘lsa, –

besh yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”.

3. JK 246-moddasi birinchi qismiga “radioaktiv materiallar” so‘zlaridan keyin “xavfli chiqindilar” so‘zlarini kiritish taklif etilgan.

4. JK 246-moddasi birinchi qismidagi “giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni” jummalarini “davlat va jamoat tuzumini qo‘porishga, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik, davlat suverenitetini buzishga, urush, terrorizmni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan” jummalari bilan to‘ldirish, shuningdek JK 156-moddasida milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tarqatish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirganlik uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish taklif etilgan.

5. JK 182, 244³, 246-moddalarida “takroran yoki xavfli retsivist tomonidan” va bojxona sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan barcha moddalarda “o‘ta xavfli retsivist tomonidan” sodir etilgan qilmish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik nazarda tutish taklif etilgan.

6. JK 182, 244³, 246-moddalarida “bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan” qilmish uchun, 130, 130¹, 244³, 244⁴, 246-moddalarida “uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan” qilmish uchun jazoni og‘irlashtiruvchi holatni belgilash taklif etilgan.

7. Qilmishni “chegarani buzib o‘tish, ya‘ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, tovar yoki boshqa qimmatliklarni O‘zbekiston Respublikasining

bojxona chegarasidan ochiqdan-ochiq o'tkazish yo'li bilan sodir etish"ni bojxona chegarasidan predmetlarni o'tkazishda ifodalanadigan bojxona sohasidagi barcha jinoyatlar uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilanishi taklif etiladi.

8. JK 182, 244⁴, 250¹-moddalaridagi "xizmat lavozimidan foydalanish", "xizmat mavqeidan foydalanish" va "mansab mavqeini suiiste'mol qilish" atamalarini "xizmat mavqeidan foydalanish" tarzida birxillashtirish taklif etilgan.

9. Bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda predmetlarni o'tkazish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan barcha moddalarda "mansabga sovuqqonlik bilan qarash orqali predmetlarni bojxona chegaradan qonunga xilof ravishda olib o'tilishiga sabab bo'lgan" qilmish uchun jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlik belgilanishi taklif etilgan.

10. Bojxona sohasidagi jinoyatlarning favqulodda holat joriy etilgan vaqtda sodir etilishini jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilash taklif etilgan.

11. JK 182-moddasi dispozitsiyasini "shuningdek, import, eksport, mavsumiy bojxona bojlari yoki bojxona yig'implari shaklidagi bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash bilan bog'liq boshqa harakatlarni sodir etish" degan so'zlar bilan to'ldirish hamda "Bojxona to'lovini to'lash majburiyatini bajarmaslik" deb nomlangan 184²-modda bilan to'ldirish taklif etilgan.

12. JKni quyidagi mazmundagi yangi 182¹-modda bilan to'ldirish taklif qilingan.

13. JKni "Moddiy madaniy meros obyektlarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki ularni qaytarish majburiyatini bajarmaslik" deb nomlangan 132¹-modda bilan to'ldirish taklif etilgan.

14. JKni "Kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvonlar yoki yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish" deb nomlangan mazmundagi 202²-modda bilan to'ldirish taklif etilgan.

15. JKni quyidagi normalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilgan:

JK 246-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasidan "giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni yoki" degan so'zlarni, ikkinchi qismi dispozitsiyasidan, shuningdek "giyovandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni ko'p miqdorda" jumllarini chiqarish;

JKni "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari yoki analoglarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi orqali tranzit tarzida o'tkazish" deb nomlangan 273¹-modda bilan to'ldirish.

16. JKni "Davlat sirlari yoki maxfiy axborotni o'z ichiga olgan axborotni yashirin ravishda olish va ishlodan o'tkazish uchun mo'ljallangan texnika vositalarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqish" deb nomlangan 278¹⁰-modda bilan to'ldirish taklif etilgan.

17. JK Maxsus qismining 8-bo'limida "zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot" atamasi va unga berilgan ta'rif quyidagi tahrirda taklif etilgan: "Tazyiqni, zo'ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulot – tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki o'zga madaniy qimmatga ega bo'lmagan,

tazyiq, zo‘ravonlik yoki shafqatsizlik sodir etishga undaydigan materiallar va narsalar”.

III. Qonunni qo‘llash amaliyotini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar:

1. Bojxona sohasidagi jinoyatlarni jinoyatchi shaxsining yosh ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda uchta toifaga ajratish mumkin: 1) JK 130, 130¹-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18-30 yoshdagi shaxslar (O‘zbekiston fuqarolari) tomonidan; 2) JK 182, 184, 246-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 30-60 yoshdagi shaxslar tomonidan; 3) JK 244³, 244⁴ va 250¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlar asosan 18-60 yoshdagi shaxslar (ham O‘zbekiston fuqarolari, ham chet el fuqarolari) tomonidan sodir etiladi.

2. Bojxona sohasidagi jinoyatlarga sabab bo‘luvchi quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

moliyaviy motivatsiya: yuqori bojxona to‘lovlaridan qochish va foyda olish maqsadi kontrabandani rag‘batlantiradi;

korruptsiya: poraxo‘rlik, bojxona xodimlari bilan til biriktirib, noqonuniy faoliyatga yo‘l ochadi;

amalga oshirish muammolari: resurslarning yetarli emasligi va yomon infratuzilma qonunchilikning samarali ijro etilishiga to‘sqinlik qiladi;

normativ murakkablik: murakkab bojxona qoidolari va byurokratik qog‘ozbozlik ekspluatatsiya qilish imkoniyatini beradi;

globalashuv: murakkab global ta‘minot zanjirlari va transchegaraviy savdo monitoringda qiyinchiliklar tug‘diradi;

texnologiyadan foydalanish: jinoyatchilar tizimlarni manipulyatsiya qilish uchun ilg‘or texnologiyalar va kiberjinoyatlardan foydalanadilar;

zaif normativ-huquqiy asoslar: noto‘g‘ri qonunchilik va yengil jazolar bojxona huquqbuzarliklarini samarali to‘xtata olmaydi va boshqa.

3. Bu turdagi jinoyatlarni oldini olishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilar taklif etilgan:

bojxona chegarasidan tovar va transport vositalarini o‘tkazish bo‘yicha ma‘muriy tartib-tartiblarini soddalashtirish;

bojxona to‘lovlari miqdorini qayta ko‘rib chiqish va ularning miqdorini pasaytirish;

bojxona xizmatida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish;

bojxona organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta‘minlash;

bojxona sohasidagi barcha ma‘muriy tartib-taomillarini raqamlashtirish;

aholining maksimal darajada bandligini ta‘minlash;

aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirish;

jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

4. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Bojxona sohasidagi jinoyatlarga doir ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori loyihasi ishlab chiqilgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ СОВЕТА
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЕРМАШЕВ ЖЕНГИС МАРАТОВИЧ

**ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЯ В ТАМОЖЕННОЙ
СФЕРЕ (УГОЛОВНО-ПРАВОВОЙ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ
АСПЕКТЫ)**

**12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право.
12.00.15 – Криминология (юридические науки).**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science)

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2023.3.DSc/Yu257.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант:

Салаев Нодирбек Сапарбаевич
доктор юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тошпулатов Акром Икрамович
доктор юридических наук, доцент

Тургунбоев Элбекжон Одиложонович
доктор юридических наук

Худайкулов Ферузбек Хуррамович
доктор юридических наук, доцент

Ведущая организация:

**Университет общественный безопасности
Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится 15 ноября 2024 года в 14:00 на заседании разового Научного совета на основе совета DSc.07/13.05.20120.Yu.22.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +99871 233-66-36; факс: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1302). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: +99871 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 1 ноября 2024 года.
(протокол реестра № 34 от 1 ноября 2024 года).

А.А. Отажонов

Председатель разового научного совета на основе Научного совета по присвоению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

М.К. Уразалиев

Научный секретарь разового Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

А.И. Ташпулатов

Заместитель председателя разового Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора юридических наук (Doctor of Science))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всем мире нарушения таможенных правил, а также контрабанда наносят серьезный ущерб мировой экономике. По данным Всемирного банка (World Bank), если общий годовой экспорт товаров и услуг в мире составляет 24 227,43 млрд долларов США¹, а годовой импорт – 21 931,2 млрд долларов США, то контрабанда и уклонение от таможенных платежей наносит ущерб на сумму 2 трлн долларов США². Это влечет потери налоговых поступлений, нарушение конкурентной среды в бизнесе, дефицит бюджета, дефицит средств на инфраструктуру, образование и другие социальные отрасли. Предупреждение подобных ситуаций, достижение Целей устойчивого развития (ЦУР), поддержка правомерного экономического роста и здоровой конкуренции, устранение коррупционных факторов в таможенной сфере, цифровизация сектора, а также усиление международного сотрудничества в противодействии таможенным правонарушениям, контрабанде, свидетельствуют о необходимости наряду с совершенствованием законодательства в таможенной сфере, предупреждать преступления в таможенной сфере, исследования данных деяний с точки зрения уголовно-правового и криминологического аспектов.

В мире особое внимание уделяется проведению научных исследований, направленных на укрепление экономической и правовой инфраструктуры в борьбе с контрабандой и незаконными финансовыми потоками (Illicit Financial Flows, IFFs), цифровизацию системы борьбы с контрабандой, наркоторговлей и другими транснациональными преступлениями в таможенной сфере, повышение грамотности в таможенной сфере в государственном и бизнес-секторе для ликвидации социальных и экономических последствий контрабанды. В частности, достигнуты определенные результаты в плане минимизации влияния таможенных преступлений на социальную стабильность и криминогенную ситуацию в развивающихся странах, изучения ущерба этого вида преступлений для мировой экономики, внедрения новой политики и мер борьбы с ними. Однако, в современных условиях необходимо изучение внешних политических и социальных последствий таможенных преступлений для национальной экономики и уровня криминогенного ущерба, определение теоретических, практических и правовых проблем борьбы с таможенными преступлениями, совершенствование организационно-правовых аспектов усиления мер ответственности за данный вид преступлений.

В нашей республике вопрос борьбы с преступностью в таможенной сфере определен в качестве одной из стратегических целей государства, осуществляются значимые мероприятия по снижению преступности в таможенной сфере, объема контрабандных товаров, минимизации риска для безопасности, экономической и социальной стабильности, а также совершенствованию правового регулирования касательно ответственности за

¹ www.wits.worldbank.org/CountryProfile/en/WLD

² https://unctad.org/system/files/non-official-document/DITC2020_TRACIT_IllicitTradeandSDGs_fullreport_en.pdf

преступления в таможенной сфере. Кроме того, в целях внедрения современных технологий в таможенных органах, повышения прозрачности процессов таможенного оформления, укрепления международного сотрудничества в борьбе с транснациональной преступностью в таможенной сфере (Евразийская организация экономического сотрудничества, Всемирная таможенная организация и т.д.), повышения профессиональной квалификации сотрудников и совершенствования внутреннего контроля в целях снижения коррупции в таможенной системе, определены основными направлениями и задачами реформирования таможенной сферы. Эти задачи требуют обеспечения соблюдения законодательства в таможенной сфере, противодействия таможенным преступлениям, угрожающим безопасности и экономике страны, а также совершенствования практики применения уголовного закона в данной сфере, исследования вопросов противодействия этим преступлениям.

Данное диссертационное исследование в определенной степени послужит реализации задач, установленных в УК Республики Узбекистан от 22 сентября 1994 года, Таможенном кодексе от 20 января 2016 года, законах «О государственной таможенной службе» от 29 августа 1997 года, «О внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан» от 26 мая 2000 года, Указах Президента Республики Узбекистан от 30 ноября 2017 года №УП-5268 «О дополнительных мерах по усилению гарантий прав и свобод граждан в судебно-следственной деятельности», от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», постановления от 14 мая 2018 года №ПП-3723 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» и иных актах отраслевого законодательства, их дальнейшего совершенствования.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Морально-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³. Научные исследования по вопросам уголовно-правовых и криминологических аспектов ответственности за преступления в таможенной сфере, совершенствования законодательства в этой сфере проводятся в ведущих мировых научных центрах и образовательных учреждениях, в том числе, University of Oxford, Centre for Criminology (Великобритания), John Jay College of Criminal Justice, City University of New York (США), MaxPlanck Institute for Foreign and International Criminal Law (Германия), Australian Institute of Criminology (Австралия), University of Cambridge, Institute of Criminology (США), Harvard Law School, Program on International Law and Armed Conflict (США), Stockholm University, Stockholm Criminology

³ Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации: www.ox.ac.uk, www.jjay.cuny.edu, www.csl.mpg.de/en, www.aic.gov.au, www.unodc.org, www.crim.cam.ac.uk, www.pilac.law.harvard.edu, www.su.se/departament-of-criminology, www.cslls.berkeley.edu, www.nscr.nl/en, www.izak.ru/en, www.council.science, www.mha.gov.in

Symposium (Швеция), University of California, Berkeley, Center for the Study of Law and Society (США), Netherlands Institute for the Study of Crime and Law Enforcement (Нидерланды), Institute of Legislation and Comparative Law under the Government of the Russian Federation (Российская Федерация), Chinese Academy of Social Sciences (Китай), National Institute of Criminology and Forensic Science (Индия).

